

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING DENOV TADBIRKORLIK VA
PEDAGOGIKA INSTITUTI MODDIY-TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH
TO‘G‘RISIDA**

Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasini qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son **Farmoniga** muvofiq quyidagilar:

binolari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari sifatida foydalaniladigan kasb-hunar kollejlari ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda — ro‘yxat) tasdiqlanganligi;

Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanida joylashgan Sariosiyo agrosanoat kasb-hunar kolleji ro‘yxatga kiritilganligi;

Vazirlar Mahkamasiga zarur hollarda ro‘yxatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va Surxondaryo viloyati hokimligining Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani, Xufar QFY, Gulobod mahallasida joylashgan sobiq Sariosiyo agrosanoat kasb-hunar kollejining bino va inshootlarini (keyingi o‘rinlarda — obyekt) operativ boshqaruv huquqi asosida Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga (keyingi o‘rinlarda — Institut) bepul berish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:

Institut tomonidan bir oy muddatda obyekt qabul qilib olinishini hamda undan maqsadli va samarali foydalanilishini;

Termiz davlat universitetining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 1 mlrd so‘m miqdoridagi mablag‘ Institut hududida zamonaviy tipdagi axborot-resurs markazini qurish uchun ajratilishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoni bilan tasdiqlangan Binolari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari sifatida foydalaniladigan kasb-hunar kollejlari **ro‘yxatidan** 281-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.A. Musayev hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 31-dekabr,
823-son

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/823/1688-son)